

IJTIMOIY TARMOQLARDA TARQATILGAN XABARGA MUNOSABAT

-

Ijtimoiy tarmoqlar orqali tanqidiy video murojaat e'lon qilingan edi.

Ushbu murojaatda: “Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumanidagi Qumtepa bozoridan murojaat yo'llayapmiz. Yog'ingarchilikda bozorga kirib bo'lmaydi, chunki hammayoqni suv bosadi. Biz sotuvchilar, soliq va boshqa to'lovlarni vaqtida to'layapmiz, lekin bozor ma'muriyati sharoit qilib bermayapti. Oqibatda ko'ngildagidek savdo qilolmayapmiz. Bozor ma'muriyatidan talab darajasida sharoit qilib berilishini so'raymiz” - **deya shikoyat qilingan.**

Qo'shtepa tumani Qumtepa mahalla fuqarolar yig'inidan yo'llangan murojaat yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz. Ushbu murojaat tuman hokimligi va sohaga dahldor mutaxassislar tomonidan joyiga borib o'r ganildi.

Murojaatda tilga olingan “Dehqon bozori” orqasida joylashgan Matonat ko'chasining 500 metr qismini asfaltlashtirish ishlari “Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi” mablag'lari hisobidan amalga oshirilishini ma'lum qilamiz.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

Facebook,

2022-03-30 21:35:16